Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna	
Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirish.....	923
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
Сущность и причины возникновения проблемных кредитов	929
Улмасой Ахмедова Хусан кизи	
The use of digitalization and technologies in updating credit policy.....	934
Otabek Ma'mirjon ogli Azimov	
Финансовое моделирование сценариев развития предприятия с использованием методов многокритериального принятия решений (МКПР).....	938
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich, Yuldosheva Gulnoza Abdinabievna	
Yuqori samarali energiya tejash texnologiyalari va katalizga asoslangan konversiya jarayonlari.....	945
Yusupov Ulug'bek Mamayusupovich	
Kambag'allikni kamaytirish maqsadida aholining ijtimoiy himoyalash mexanizmini takomillashtirish	951
Kasimova Gulyar Axmatovna	



Tijorat banklarida foiz riski muammosi	957
Turdiyev Abdulhakim Kulbazarovich	
Milliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishdagi to'siqlarni bartaraf qilish choralari.....	964
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish usullari.....	970
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
O'zbekistonda mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarini takomillashtirish konsepsiyasi: strategik yondashuv.....	974
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	
O'zbekiston sanoatida "yashil texnologiyalar" dan foydalanish va barqaror rivojlanish.....	979
Ubaydullaeva Gulchehra Erkabaevna	
Sanoat korxonalarida resurslarini rejalashtirish (ERP) tizimlarini joriy etishning orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash yo'llari	985
Azizov Abdulla Abdisalamovich	
Yashil texnologiyalar asosida sanoatni modernizatsiya qilish	990
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	
Ta'lim va ilm-fan rivoji – taraqqiyot garovi	995
Jamalova Gulnora Gulomovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida turizm sektorida barqaror bandlikni ta'minlash masalalari.....	1000
To'rabekov Sohijon Sherboy o'g'li	
Yashil energitikasi integratsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishning zamonaviy usuli (aqlli tarmoqlar-smart grids)	1007
Karimova Salima Elamonovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida soliqlarni raqamlashtirishni takomillashtirish	1012
Jo'rayev Botir Abdiyevich	
Yashil iqtisodiyotda tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish samaradorligi (TEM ko'rsatkichlar izohi)	1018
Sharifova Nargiza Djurayevna	
Экономическое образование молодёжи основа будущего страны.....	1023
Айматова Фарида, Айтиниязова Наргиза	
Biznes turizmining bugungi kundagi rivojlanish tendensiyasi.....	1028
Yangiyeva Sabrina Ixtiyorovna, Daniyarova Feruza Bahriddinovna	
Особенности кредитования сельскохозяйственных организаций и этапы его развития.....	1032
Ж.Я.Нуриллаев	
Xorijiy tajriba asosida O'zbekiston yashil iqtisodiyotini takomillashtirish yo'llari.....	1039
Xikmatova Husnora Fatxulla qizi	
Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli	1045
Umarov Muzaffar Yusupbayevich, Otamurodov Rasulbek Batirovich, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Atadjanov Kadambay Sapayevich	
Mintaqada raqamli transformatsiya rivojlanishida moliyaviy texnologiyalarning ahamiyati.....	1052
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Tijorat banklaridan olingan kreditni qaytarishda foiz stavkalari ta'sirining tahlili.....	1058
Xanmuratov Roushenbek Xalmuxammetovich, Vaxabov.A.V	
Tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri va yashil ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish bosqichlari.....	1066
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B taqsimotida chakana savdo tarmoqlari bilan marketing asosidagi strategik hamkorlik	1071
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Мировой финансовый кризис и его влияния на состояние экономики Узбекистана	1076
Раупова Мхлисахон Ибрахимжон кизи	
Uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	1087
Hakimov Faxritdin Abdusattorovich	
O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	1093
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	



Yo'l qurilish tashkilotlarida yo'l qurilish ko'lamini oshirib, samarali resurslar taqsimotini ishlab chiqish.....	1099
Raximov Dilshodjon Turdiali o'g'li	
Ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	1104
Karimova Komila Daniyarovna	
Ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi.....	1111
I.G'.Isroilov	
Выведение практического сотрудничества на качественно новый уровень государств центрально-азиатского региона в укреплении концепции «зеленой экономики» в эпоху глобализации.....	1117
Парпиева Наргиза Тахировна	
Kimyo sanoati korxonalarida lean production konsepsiyasidan foydalanish istiqbollari	1122
Gulbayeva Feruza Islomovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida auditorlik xizmatlarining ahamiyati.....	1127
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llari	1131
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Теоретические основы формирования понятия «финансовая стабильность» Часть II	1143
Алиева Сусанна Сейрановна	
O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish tendensiyalari.....	1148
Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	
Theoretical basis of the use of modern information technologies in accounting	1154
Annavayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	



ISHLAB CHIQUARISHNI BOSHQARISHDA MAHSULOT TANNARXINI KALKULYATSIYA QILISHNING AHAMIYATI

Asqarova Lobarxon Usmanjanovna

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti,
"Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish davrida xo'jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish va tahlilining ilg'or tizimlaridan foydalanishning ahamiyati haqida fikr yuritgan.

Kalit so'zlar: diversifikatsiya, ishlab chiqarish, mahsulot, strategik va taktik, standart-kost, tannarx, xarajat, kalkulyatsiya.

Abstract: In this article, the author consider the importance of using advanced systems for calculating and analyzing product costs in managing production in business entities during the period of economic diversification.

Key words: diversification, production, product, strategic and tactical, Standard cost, cost, cost price, calculation.

Аннотация: В данной статье автор рассматривает важность и значение использования современных систем расчета и анализа себестоимости продукции при управлении производством в хозяйствующих субъектах в период диверсификации экономики.

Ключевые слова: диверсификация, производство, продукт, стратегический и тактический, Стандарт-кост, стоимость, себестоимость, расчет.

KIRISH

Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish davrida xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida iqtisodiy raqobatbardoshlik muhitining shakllanishi ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini hisoblash va tahlilining ilg'or tizimlaridan foydalanish zaruriyatini tug'diradi. Xorijiy mamlakatlarda boshqaruv tahlilini yuritishning zamonaviy sharoitida strategik va taktik xususiyatga ega bo'lgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni xo'jalik yurituvchi subyektlarning xarajatlari va moliyaviy natijalari haqidagi axborotga tayanadi. Bu vazifalarni bajarishda bir qator zamonaviy tizimlarning ahamiyati kattadir. Shulardan biri – "Standart-kost" tizimidir. Uning asosida belgilangan normalar doirasida hamda ulardan chetlanishlar bo'yicha hisob yuritish va nazorat qilish tamoyillari yotadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xarajatlarni normativ usulda aniqlash XX asr boshlarida AQShda paydo bo'ldi. Bu F. Taylor, G. Emerson va boshqa muhandislar taklif qilgan ilmiy menejment tamoyillaridan biri edi¹. Ular xarajatlarning normativ hisobini rivojlantirish uchun turtki berdilar. Ushbu olimlar mehnat va materiallardan foydalanishning yagona, eng yaxshi yo'lini aniqlash uchun standartlar qo'llar edilar. Bu standartlar materiallar va mehnat iste'molining eng kam darajasiga keltirishni ta'minlovchi rejani qabul qilish uchun axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu muammoni hal etish ko'p jihatdan boshqaruv hisobi va xususan mahsulot tannarxi xarajatlari va kalkulyatsiya qilish hisobi samarali tizimini tashkil etishga bog'liq. Shu munosabat bilan avvalo mahsulot tannarxi xarajatlari va kalkulyatsiya hisobi uslublariga nisbatan o'z qarashimizni aniqlab olish maqsadga muvofiq.

Ya.V. Sokolov "Buxgalteriya hisobi nazariyasi asoslari" ishida turli mualliflar nuqtayi nazarini umumlashtirib, mazkur muammoga to'rtta yondashuvni ajratib ko'rsatadi:

1. kalkulyatsiya xarajatlari hisobi sharti asosida olib boriladi;
2. xarajatlari hisobi kalkulyatsiyani shart qilib qo'yadi;
3. kalkulyatsiya va hisob bir-biriga o'xshaydi;
4. kalkulyatsiya va xarajatlari hisobi bir-biriga bog'liq bo'lmagan tushunchalardir.

Mazkur muammo bo'yicha turli nuqtayi nazar vakillari o'z fikrini qanday asoslantirishini ko'rib chiqaylik.

Birinchi nuqtayi nazar vakillari safiga A.Z. Popov, N.A. Balatov, B.A. Bunimovich va boshqalar kiradi. Ular o'z nuqtayi nazarlarini shu bilan asoslaydilar, tannarx buxgalteriya hisobi asosiy manbai, korxona faoliyatining

1 Файоль А, Эмерсон Г., Тейлор Ф., Форд Г. Управление –это наука и искусства.-М.:Республика, 1992.-90 с.



sintetik ko'rsatkichidir. Binobarin, mahsulot tannarxini hisobga olish xarajatlar hisobi yuritish zaruriyatini shart qilib qo'yadi. Ular fikricha, tannarx – bu maqsad, xarajatlar hisobi esa maqsadga erishish vositasi hisoblanadi.

Bizningcha, bu fikr bahsga sazovordir. Mahsulot tannarxini aniqlash chog'ida mutaxassislarni birinchi navbatda xarajatlar hisobi tartibi va ularni turli qaydnomalarga aks ettirilishi emas, balki ko'proq xarajatlarning o'zi haqidagi axborot qiziqtiradi. Bundan tashqari, taxminiy yoki rejaviy tannarxni aniqlashtirganda buxgalteriya hisobining haqiqiy ko'rsatkichlaridan odatda foydalanilmaydi. Bundan tashqari, hisobotning kalkulyatsiya maqsadlarga tobeligi alohida menejerlarning "zarur" ma'lumotlar olishiga, natijada esa mahsulot haqiqiy tannarxining buzib ko'rsatilishiga olib kelishi mumkin.

Ikkinchi nuqtayi nazar vakillari – K.I. Arnold, D.A. Mudrov, V.I. Stotskiy, R.Ya. Veysman, M.X. Jebrak va boshqalar kiradi. O'z nuqtayi nazarlarini asoslashda asosiy dastak qilib, mahsulot tannarxini hisobga olish uchun birinchi galda uni tashkil etuvchilarni qayd etish zarur, ya'ni xarajatlar hisobini yuritish zarur, shundan keyingina kalkulyatsiya qilinadi. Ularning fikricha, xarajatlar hisobini kalkulyatsiya shakllantirmaydi, balki aksincha, xarajatlar hisobi tannarxning ahamiyatini oshiradi. Bu yondashuvda xarajatlar va kalkulyatsiya hisobi qat'iy ajratib qo'yilgan bosqichlar deb qaraladi: xarajatlar hisobi birlamchi, kalkulyatsiya esa ikkilamchi. Bunda xarajatlar hisobi kalkulyatsiyasiz, kalkulyatsiya esa xarajatlar hisobisiz mavjud bo'la olmaydi.

Shuni ta'kidlash joizki, bunday yondashuv olimlar tomonidan ikki tomonlama tanqidga uchradi:

1. metodologiya va kalkulyatsiya qilish hisobi maqsadlari o'rtasida chegara paydo bo'ladi;
2. ishlarni takroran olib borish xavfi yuzaga keladi: bir tomondan xarajatlar hisobi bo'yicha, ikkinchi tomondan – mahsulot haqiqiy tannarxini kalkulyatsiya qilish bo'yicha.

Uchinchi nuqtayi nazar vakillari – S.F. Ivanov, N.V. Bogorodskiy, A.S. Margulis va boshqalar oldingi yondashuvni to'la inkor etadilar. Masalan, A.Sh. Margulis aytadiki, "kalkulyatsiya qilish metodini xarajatlar hisobi metodidan uzilib qolishi, buning ustiga metodning iqtisodiy asosda chiqimlarni aniqlash va o'rganishga yondashuv sifatida texnik hisob-kitob varianti bilan almashtirilishi kalkulyatsiya jarayonining ta'siri pasayishi, uni hisob bazasidan sun'iy ravishda ajratib qo'yishni anglatadi".

Biroq masala muammoni bir-biriga o'xshash va ularni tarkibi jihatdan qo'shib yuborishga bo'lgan urinishlar samarali boshqaruv qarorlariga olib kelolmadi. Bunday yondashuvda xarajatlar hisobi maqsadi deb boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun axborot taqdim etish emas, balki mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish deb tan olinadi.

To'rtinchi yondashuv oldingisiga javob sifatida qaraladi. Uning vakillari (N.G. Chumachenko, E.K. Gilde, V.B. Ivashkevich va boshqalar) kalkulyatsiyani xarajatlar hisobidan ajratib qo'yishni va ularni turli tushunchalar deb qarashni zarur deb hisoblaydilar. Masalan, I.A. Vaskmanov shu munosabat bilan yozadiki, o'zgarish predmetlari kabi anglash usullarining ham turli-tumanligi xarajatlar va kalkulyatsiyaga xos narsalardir. N.G. Chumachenko va P.P. Novichenko mazkur nuqtayi nazarni qo'llagan holda mahsulotga xarajatlar hisobi usullarini va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish usullarini ajratishni taklif qiladilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar korxonalarning ishlab chiqarish hisobotlari, buxgalteriya hujjatlari va moliyaviy ko'rsatkichlari asosida to'plandi. Olingan ma'lumotlar tahlili uchun taqqoslama va iqtisodiy-statistik metodlar qo'llanildi, shuningdek, mahsulot tannarxi tarkibining o'zgarish tendensiyalari va boshqaruv samaradorligiga ta'siri ekonometrik modellash asosida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda jahonda innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishida xo'jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini hisoblash hamda tahlilining nazariy hamda uslubiy asoslarini takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu tadqiqotlar natijasida ishlab chiqarish xarajatlari hamda mahsulot tannarxi obyektlarini tasniflash, baholash, hisobini tashkil etish va yuritish, foydalanuvchilar uchun axborot imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida ularni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish, ulardan samarali foydalanishda tahlil qilish uslubiyoti masalalari takomillashtirilgan. Ammo, jahon mamlakatlarida xo'jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi obyektlarining rivojlanishi turli darajada bo'lganligi, ularning hisobi va tahlili bo'yicha xalqaro darajada erishilgan natijalarni to'liq joriy etilmay qolishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekistonda xo'jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish xarajatlari kamaytirish va mahsulot tannarxini pasaytirishda innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish va ularning hisobini tashkil etishda davlat dasturi darajasida e'tibor qaratilib, muayyan natijalarga erishildi. Bugungi kunda ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi tahlilini tashkil etishni takomillashtirish borasida o'z echimini kutayotgan qator muammolar mavjud.



Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish korxonaning iqtisodiy faoliyatini samarali tashkil etish va raqobatbardosh mahsulot yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kalkulyatsiya nafaqat mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini aniqlash, balki ichki boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ishlab chiqarish rejalarini optimallashtirish va narx siyosatini shakllantirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Mahsulot tannarxining aniq hisob-kitobi orqali korxona o'z faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholaydi, resurslardan foydalanish darajasini aniqlaydi va rentabellik ko'rsatkichlarini oshirish imkoniyatlarini izlaydi.

Tannarx kalkulyatsiyasi ishlab chiqarish jarayonida sarflanadigan barcha to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita xarajatlarning tartibga solingan tahlilini ta'minlaydi. To'g'ridan-to'g'ri xarajatlarga xomashyo, materiallar, bevosita ish haqi va asosiy ishlab chiqarish bilan bog'liq boshqa sarf-xarajatlar kiradi. Bilvosita xarajatlar esa umumiy ishlab chiqarish xarajatlari, boshqaruv va xizmat ko'rsatish xarajatlarini o'z ichiga oladi. Shu tarzda kalkulyatsiya korxona faoliyatining har bir bosqichidagi xarajatlarni aniq ajratish va ularni boshqaruv qarorlariga asos sifatida ishlatish imkonini beradi. Aynan tannarx strukturasi va uning tahlili asosida mahsulot narxini shakllantirish mumkin bo'ladi, bu esa bozordagi raqobat sharoitida muvaffaqiyat uchun zarur omildir.

Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning vositasi sifatida ham muhim rol o'ynaydi. Tahlil natijalari asosida qaysi resurslardan ortiqcha foydalanilayotgani, qaysi texnologik operatsiyalar yuqori xarajat talab qilayotgani va qaysi bo'limlarda optimallashtirish zarurligi aniqlanadi. Shu bilan birga, kalkulyatsiya natijalaridan foydalanib, ishlab chiqarish quvvatlaridan maksimal darajada foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va energiya resurslarini tejash imkoniyatlari aniqlanadi. Bu esa nafaqat xarajatlarni kamaytirish, balki umumiy ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Tannarxni kalkulyatsiya qilish zamonaviy sharoitda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham o'z o'rniga ega. Bozorda narxlarning o'zgaruvchanligi va resurslar narxining oshishi sharoitida mahsulot tannarxining muntazam monitoringi va tahlili ishlab chiqarish strategiyasini o'z vaqtida moslashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, kalkulyatsiya korxona uchun risklarni kamaytirish, investitsiya loyihalarini baholash va yangi mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha qarorlar qabul qilishda tayanch ma'lumot vazifasini bajaradi. Tannarxni aniq hisoblash orqali korxona o'zining moliyaviy barqarorligini saqlab qolish va investitsiya jozibadorligini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ishlab chiqarishni boshqarish jarayonida mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasining metodologik asoslari ham alohida ahamiyatga ega. Korxonalar odatda kalkulyatsiyaning uch asosiy usulidan foydalanadi: rejalashtirilgan, normativ va faktik tannarx. Rejalashtirilgan kalkulyatsiya asosida ishlab chiqarish rejalarini va kutilayotgan xarajatlar aniqlanadi. Normativ kalkulyatsiya ishlab chiqarish me'yorlari va standartlariga asoslanadi va samaradorlik darajasini aniqlash uchun ishlatiladi. Faktik kalkulyatsiya esa haqiqiy ishlab chiqarish xarajatlari asosida shakllanadi va reja va normativ ko'rsatkichlar bilan solishtiriladi. Ushbu metodlardan foydalanish korxonaga tannarxni boshqarish, tahlil qilish va takomillashtirish imkonini beradi.

Kalkulyatsiya natijalarining sifatli tahlili boshqaruv qarorlarining aniqligi va ishonchligini oshiradi. Tannarxning o'zgarish dinamikasini tahlil qilish orqali ishlab chiqarishdagi kamchiliklar, texnologik jarayonlardagi samarasizliklar va resurslardan noto'g'ri foydalanish holatlari aniqlanadi. Bunday tahlil ma'lumotlari asosida ishlab chiqarish jarayonini yaxshilash, xarajatlarni optimallashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqiladi. Natijada, mahsulot tannarxi pasayadi, korxona raqobatbardoshligi oshadi va bozor ulushini kengaytirish imkoniyati yaratiladi.

Tannarx kalkulyatsiyasi shuningdek, ichki boshqaruv nazoratining muhim vositasidir. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini aniq va doimiy nazorat qilish orqali korxona ichidagi moliyaviy oqimlar va resurslardan foydalanish samaradorligi tahlil qilinadi. Kalkulyatsiya orqali har bir mahsulot turi bo'yicha daromadlilik darajasi baholanadi va zarar keltirayotgan mahsulotlar aniqlanadi. Bu esa korxonaga o'z assortiment siyosatini qayta ko'rib chiqish va resurslarni faqat daromad keltiradigan yo'nalishlarga yo'naltirish imkonini beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot tannarxining aniq va ishonchli kalkulyatsiyasi mijozlar talabiga mos mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularga maqbul narx belgilash uchun asos yaratadi. Tannarx tahlili asosida ishlab chiqilgan narx siyosati orqali korxona o'z mahsulotlarining raqobatbardoshligini ta'minlaydi, iste'molchilarga mos keladigan narx darajasini belgilaydi va foyda olish imkoniyatini oshiradi. Shu bilan birga, kalkulyatsiya asosida ishlab chiqilgan marketing strategiyalari mahsulotlarni targ'ib qilish va bozor segmentatsiyasi jarayonlarida samarali foydalaniladi.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda raqamli texnologiyalar mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. ERP, CRM va boshqa axborot tizimlari yordamida ishlab chiqarish jarayonidagi xarajatlar haqidagi ma'lumotlar real vaqt rejimida yig'iladi, tahlil qilinadi va avtomatlashtirilgan holda qayta ishlanadi. Bu esa kalkulyatsiya jarayonini tezlashtiradi, inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytiradi va boshqaruv qarorlarini qabul qilishni sezilarli darajada soddalashtiradi. Raqamli texnologiyalar yordamida olingan kalkulyatsiya natijalari asosida korxonalar o'z ishlab chiqarish va moliyaviy strategiyalarini aniqroq rejalashtiradi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy asosini tashkil etadi va korxonaning raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tannarxning aniq va tizimli hisob-kitobi asosida xarajatlarni nazorat qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va boshqaruv qarorlarini samarali qabul qilish imkoniyati yaratiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kalkulyatsiya mexanizmini rivojlantirish ishlab chiqarish korxonalarida nafaqat xarajatlarni kamaytirishga, balki mahsulot sifatini oshirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, sohani rivojlantirish uchun, avvalo, korxonalar kalkulyatsiya jarayonini raqamlashtirish va avtomatlashtirish darajasini oshirishi, ERP va moliyaviy boshqaruv tizimlarini joriy etishi lozim.

Shuningdek, tannarxni shakllantirishda zamonaviy metodologiyalardan foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarning har bir unsurini tahlil qilish va samaradorlik ko'rsatkichlarini muntazam baholash zarur. Mahsulot tannarxining normativ bazasini takomillashtirish va uni amaliyotda qo'llash mexanizmlarini mustahkamlash orqali kalkulyatsiyaning aniqligi va ishonchligini oshirish mumkin. Kadrlar malakasini oshirish, hisob va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish ham ishlab chiqarishda kalkulyatsiya tizimining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Yana bir muhim taklif sifatida, ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlarni qisqartirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan ichki audit va monitoring tizimlarini kuchaytirish zarur. Aynan ushbu yondashuvlar mahsulot tannarxini boshqarish samaradorligini oshirib, korxonalarning iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Файоль А, Эмерсон Г., Тейлор Ф., Форд Г. Управление – это наука и искусство. – М.: Республика, 1992. – 90 с.
2. "Махсулот (иш ва хизмат)лар тannархига киритилadиган, махсулот (иш ва хизмат)ларни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисида"ги Низом. - Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999й. 5 февраль 54- сонли қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Бухгалтерия ҳисоби Миллий Стандартлари. Т.:БМА нашриёти. 1999й.
4. Андерсон Г., Нидлз Б., Колдуэлл Д. Принципы бухгалтерского учета. М.:, "Финансы и статистика", 1993, 496 с.
5. Аксененко А.Ф., Шеремет А.Д. Учет, калькурование и анализ себестоимости продукции. – М.: МГУ, 1984. – 264с.
6. Друри К. Учет затрат методом стандарт-кост.-М.: ЮНИТИ, 1998.-224 с.
7. Иванов Н.Н. Нормативный учет производства .-М.: Госфиниздат, 1956.-220 с.
8. Расулев А.Ф., Мамбетжанов Қ.Қ. Бухгалтерия ҳисоби ва солиққа тортиш иқтисодий фанларнинг пойдевори сифатида. Иқтисод ва молия / Экономика и финансы 2016, 2.
9. Абдусатторович К.Ф. Принципы признания, оценки и учета долгосрочных активов в международном шаблоны учетных записей //Web of Science: Международный научно-исследовательский журнал. – 2022. – Т. 3. – № 11. – Б. 1133–1138
10. Мусаева Ж. К. ОСОБЕННОСТИ И ПУТИ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА В МИРОВОМ ХОЗЯЙСТВЕ //ББК 65.0501 С 56. – 2018. – С. 233.
11. Мусаева Ж. РОЛЬ ФИНАНСОВОГО УЧЕТА В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСАМИ //Відповідальний за випуск. – 2017. – С. 30.
12. Мусаева Ж. К. ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО АНАЛИЗА В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА. – 2017.
13. Мусаева Ж. К. Роль корпоративных стратегий диверсификации в повышении эффективности производства // Молодой ученый. – 2016. – №. 13. – С. 469-472.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>